

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSIGA O'TISH TEZLASHMOQDA



LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSIGA O'TISH TEZLASHMOQDA
O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov tomonidan 01.07.2021 yil 30/1-2308-son xati orqali barcha vazirliklar, idoralar va tashkilotlar, shuningdek, mahalliy hokimliklarga yo'llangan topshirig'i hamda viloyat hokiminining 05.07.2021 yildagi 01-17/1526-son xatiga asosan quyidagilar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida bo'lishi ta'minlanishi kerakligi ta'kidlangan:

- barcha joy va ko'cha nomlari;
- atamalar;
- tashkilotlarning nomlari;
- peshlavhalar;
- ommaviy targ'ibot vositalari;
- reklama va e'lonlar;
- ish qog'ozlari va turli blanklar.

Shu munosabat bilan shahardagi barcha xo'jalik yurituvchi subektlarga Termiz shahar hokimining tegishli xati orqali ishchi guruhi tomonidan tushuntirish va ogohlantirish ishlari olib borilmoqda. Targ'ibot-tashviqot ishlari davom etmoqda.